

FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING HUQUQIY, XALQARO VA SUD AMALIYOTI ASOSLARI

Bayjanova Ramuza Tenelbay qizi

Qaraqolpoq davlat universiteti

Fuqoralik va Biznes huquqi kafedrası o'qituvchi-stajyori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17406431>

Annotatsiya. mazkur tezisda farzandlikka olish institutining O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy asoslari, xalqaro me'yorlar bilan o'zaro uyg'unligi va sud amaliyotida qo'llanilish holatlari tahlil qilingan. Oila kodeksi, Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonun hamda BMT va Gaaga konvensiyalariga asoslangan holda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurati yoritilgan. Tadqiqotda bola manfaatlari ustuvorligi tamoyilining sud amaliyotidagi ifodasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: farzandlikka olish, bola huquqlari, oila qonunchiligi, xalqaro huquq, sud amaliyoti, bola manfaatlari, ijtimoiy himoya.

Farzandlikka olish bolalar huquqlarini himoya qilishning eng muhim huquqiy institutlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida bu masala Konstitutsiya va Oila kodeksi orqali tartibga solinadi [1]. Konstitutsiyaning 78-moddasida 'Bolalar davlat himoyasida bo'lishi kerak' degan norma farzandlikka olish institutining asosiy tamoyilidir. Bundan tashqari, mustaqillik yillarida bola huquqlarini himoya qilish borasida bir qator qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi [2]. Mazkur tadqiqotda farzandlikka olish institutining huquqiy asoslari, xalqaro me'yorlari va sud amaliyotidagi o'rni ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi farzandlikka olish institutini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy manbadir [3]. Mazkur kodeksning 151–172-moddalarida farzandlikka olishning tartibi, shartlari va huquqiy oqibatlari belgilangan. Farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar faqat sud tartibida ko'riladi [4]. Sud bola manfaatlarini inobatga olib, vasiylik va homiylik organining xulosasini o'rganadi. Farzandlikka olingan bola yangi familiya, ism va ota ismini olish huquqiga ega bo'ladi, shuningdek, farzandlikka oluvchining merosxo'ri sifatida tan olinadi [5]. Bu esa bolaning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi.

Farzandlikka olish masalasida xalqaro huquqning eng muhim manbasi — 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" hisoblanadi [6]. Konvensiyaning 21-moddasiga ko'ra, farzandlikka olish faqat bolaning eng yaxshi manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, 1993-yil 29-mayda qabul qilingan Gaaga konvensiyasi xalqaro farzandlikka olish tartibini belgilaydi [7]. O'zbekiston 1994-yilda BMT konvensiyasini ratifikatsiya qilgan va xalqaro normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilmoqda. Sudlar amaliyotida 'bola manfaatlar ustuvorligi' tamoyili tobora keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik asosida xorijiy farzandlikka olish jarayonlarini nazorat qilish mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Sud amaliyotida farzandlikka olishga oid ishlar asosan Oila kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksiga tayangan holda ko'rib chiqiladi. Sud qaror chiqarishda vasiylik organining xulosasi, bolaning ijtimoiy holati va farzandlikka oluvchining ma'naviy fazilatlarini baholanadi. Amaliyotda ayrim hollarda bola manfaatlar to'liq ta'minlanmagani yoki farzandlikka oluvchining

ma'naviy tayyorgarligi yetarli bo'lmagani holatlari uchraydi. BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyalariga ko'ra, davlatlar sud amaliyotida bolaning fikrini inobatga olishni kuchaytirishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, farzandlikka olish institutining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasida izchil takomillashib bormoqda. Milliy qonunchilik xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashgan holda, bola manfaatlarini ta'minlashni asosiy maqsad sifatida belgilagan. Sud amaliyotida bu tamoyilning yanada to'liq qo'llanishi, vasiylik organlari faoliyatining oshkoraligi va nazorat tizimining kuchaytirilishi bolalar huquqlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Kelgusida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, farzandlikka oluvchilarni psixologik va huquqiy tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun, 2008-yil 7-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (yangi tahrir), 2023-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, 1998-yil 30-aprel.
5. Karimova D. Oila huquqi asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
6. BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, 1989-yil 20-noyabr.
7. Gaaga konvensiyasi, 1993-yil 29-may. “Bola himoyasi va xalqaro farzandlikka olish to'g'risida”.